

XORIJY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH VA O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINI OSHIRISH

Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi

Toshkent moliya institute BET-71 guruh talabasi

So'nggi bir necha yil ichida O'zbekiston jadal iqtisodiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda biznes va investitsiyalar uchun turli xil to'siqlarini bartaraf etishda ochiqlik, yangilanish sifatida tobora ko'proq namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonunini¹ samarali ijro etilishi uchun investorlar bilan Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, hokimliklar, xorijdagi diplomatik vakolatxonalar va tijorat banklari rahbarlari o'rnibosarlaridan iborat bo'lgan davlat hokimiyat organlari hamkorligining 4 bosqichli mexanizmi muvaffaqiyatli yo'lga qo'yilgan. Ushbu mexanizm investorlarning barcha so'rovlariga tezkor javob qaytarish va qonunda nazarda tutilgan chora-tadbirlar amalga oshirilishining samaradorligini kerakli tarzda nazorat qilish imkonini beradi.

Shu bilan birga, jahon amaliyoti va tajribasi shuni ko'rsatadiki, biznesning investitsiya va innovatsion faoliyatiga to'sqinlik qilayotgan muammolarni endi oddiy vositalar bilan, ya'ni imtiyozlar berish yoki yangi deklarativ me'yordi nashr etish bilan hal qilishning imkonini yo'q.

Xususiy investitsiyalarni faollashtirish uchun tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish talab etiladi. Biznes bilan doimiy muloqot, muayyan sektorlarning rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan to'siqlarni aniqlash va yengib o'tish bo'yicha astoydil ish olib borish kerak. Shu munosabat bilan 5 ta yo'nalishlar bo'yicha faol ish olib borilmoqda.

Birinchidan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev aytganlaridek, iqtisodiyotda yuqori o'sish sur'atlarini saqlab qolish uchun makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashimiz², hamda, mamlakat iqtisodiyotining barqaror va raqobatbardosh, bank tizimi aktivlarining katta qismi xususiy investorlar qo'lida bo'lgan modelini shakllantirishimiz zarur.

Ikkinchidan, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri bo'lgan infratuzilmaga yo'naltirilgan investitsiyalarining o'sishini ta'minlash maqsadida davlat-xususiy sheriklik va loyihalarini moliyalashtirish vositalarini rivojlantirish orqali investitsiyaviy faoliyatni rag'batlantirish ham faol tarzda olib borilmoqda.

Uchinchidan, raqamlashtirish va davlat xizmatlarini masofaviy taqdim etish orqali investitsiya loyihalarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2019 yil 9-

¹ <https://lex.uz/docs/-4664142> O'zbekiston Respublikasining, 25.12.2019 yildagi O'RQ-598-sun qonuni

² <https://xs.uz/uz/post> Iqtisodiyotda yuqori o'sish sur'atlarini saqlab qolish uchun makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlanadi - Shavkat Mirziyoyev.

dekabrdagi PQ-4546-sonli qaroriga³ muvofiq ravishda byurokratik⁴ to'siqlar qisqartirish va cheklovlarini to'liq bartaraf etish uchun investorlar va davlat o'rtasidagi munosabatlarni optimallashtirilmoqda. Shaffoflikni maksimal darajada ta'minlash va korrupsiyaning oldini olish uchun xorijiy investorlarning murojaatlari va so'rovlari bilan ishslashni tashkil etish sifati yaxshilanmoqda.

To'rtinchidan, ish kuchi va kapital iqtisodiyotning hozirda qonuniy sektorlaridan yashirin iqtisodiyotga oqib ketishiga olib keladigan tranzaksiya xarajatlarining⁵ kamayib borishi kuzatilmoqda.

Beshinchidan, kelgusida texnologik yutuqlarga erishish nuqtasiga aylanishi va keyingi 20-30 yil davomida mamlakat ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlanishi uchun zamin yaratishi mumkin bo'lgan O'zbekistonning eng istiqbolli sohalariga yo'naltirilgan investitsiya siyosati strategiyasi ishlab chiqilmoqda.

Investitsiya muhiti mamlakatdagi barcha faoliyat sohalariga ta'sir ko'rsatishini inobatga olgan holda, islohotlar ko'ldami iqtisodiy, institutsional, ta'lim, sog'liqni saqlash, qishloq xo'jaligi, suv ta'minoti, energetika, transport va boshqa yo'nalishlarni qamrab oldi.

Shuningdek, tadbirkorlarni va investitsiya loyihalari tashabbuskorlarini amaliy qo'llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Ushbu yo'nalishdagi eng yorqin misol - bu 2020-yilda tuzilgan eksport va investitsiyalarni rivojlantirish masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasining faoliyati bo'lib, uning vazifalariga tadbirkorlar va eksportchilar bilan yaqin hamkorlik qilish, pandemiya tufayli yuzaga kelgan cheklovlar bilan bog'liq muammolarni tahlil qilish, shuningdek, har bir tadbirkorlik subyektining muammosini hal qilishda individual yondashuv asosida tezkor va samarali yechimlarni ishlab chiqish va amalga oshirish kiradi.

Xorijiy investitsiyaga ta'sir etuvchi omillar mavjud, ya'ni iqtisodiy omillar va siyosiy omillar:⁶

1) Iqtisodiy omillar:

-jahon va alohida mamlakatlar iqtisodiyotidagi chuqur tarkibiy siljishlarning amalga oshirilishi (ayniqsa, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va jahon xizmatlar bozori taraqqiyoti ta'siri ostida olib borilishi);

-ishlab chiqarishni xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvining chuqurlashuvi;

-jahon iqtisodiyotini transmilliylashtirilishini o'sib borishi (AQSh transmilliy korporatsiya (TMK)lari xorijiy filiallarining mahsulot ishlab chiqarish hajmi AQSh tovar eksportidan 4 marotaba ortiqdir);

-ishlab chiqarishning baynalminallashuvi va integratsiya jarayonlarining chuqurlashib borishi;

³<https://lex.uz/docs/-4634623> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 09.12.2019 yildagi PQ-4546-sonli qarori Byurokratik to'siqlarni yanada qisqartirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga zamонави boshqaruв tamoyillarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida

⁴ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Byurokratik> byurokratik (frans. bureau byuro, idora; yun. kratos - kuch, hokimiyat, xukmronlik; - dastlab hukumat idolarining rahbarlari va amaldorlari hokimiyati; keyinchalik jamiyatning turli sohalarida paydo bo'lgan yirik tashkilotlardagi xizmatchilar qatlami)

⁵ <https://avtovsamare.ru/uz> tranzaksiya xarajatlari

⁶ "Hudud iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati" Boboyev A, Yodgorova Z, 2023-yil monografiya

-xalqaro iqtisodiy munosabatlarning faol rivojlanishi va boshqalar.

2) Siyosiy omillar:

-kapital eksporti (importi)ni erkinlashtirish (Erkin iqtisodiy hududlar (EIX), offshor hududlari va boshqalar);

-rivojlanayotgan mamlakatlarda industirlashtirish siyosatini olib borish;

-iqtisodiy islohotlarni olib borish (davlat korxonalarini xususiylashtirish, xususiy sektorni va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash);

-bandlik darajasini ushlab turish siyosatini olib borish va boshqalar.

Mening fikrimcha, hududlarga xorijiy investitsiyalarni jalb etmay, ayniqsa, yetakchi tarmoqlarda chet el investitsiyalari ishtirokini kengaytirmay turib, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va modernizatsiyalash, korxonalarni zamonaviy texnika bilan qayta jihozlash hamda raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin emas.

Shuningdek, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotiga 50 dan ortiq davlat investitsiya kiritayotgan bo'lib, xususan, Xitoy (2,2 mlrd. doll.), Rossiya (2,1 mlrd. doll.), Germaniya (800,7 mln. doll.), Turkiya (1,18 mlrd. doll.) va Janubiy Koreya (137,4 mln. doll.)⁷ asosiy investor davlatlar hisoblanadi.

Hududlar iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etilishi uning iqtisodiy imkoniyatlarining kengayishini tezlashtirib, barcha sohalarda ichki imkoniyatlar va rezervlarni ishga solish, yangi texnika va texnologiyani, eksportbop tovarlarni o'zlashtirishga, ularni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali davlatimiz iqtisodiy qudratini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

O'zbekistonda so'nggi 6 yilda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi⁸

№	Yillar	Investitsiyalar hajmi
1.	2017-yilda	71,2 trln. so'm
2.	2018-yilda	124,2 trln. so'm
3.	2019-yilda	195,9 trln. so'm
4.	2020-yilda	210,2 trln. so'm
5.	2021-yilda	239,5 trln. so'm
6.	2022-yilda	270,2 trln. so'm

Jadvalda ko'rib turganimizdek, O'zbekistonda 6 yil davomida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshib bormoqda. Shuningdek, 2017-yil va 2022-yil oralig'idagi investitsiyalar hajmiga e'tibor bersak, juda katta o'zgarishni ko'ramiz ya'ni 2017-yilda 71,2 trln.so'mdagi investitsiyalar hajmi, 2022-yilga kelib 270,2 trln.so'mni tashkil etган.

⁷ <https://stat.uz>

⁸ 1-jadval: "O'zbekistonda so'nggi 6 yilda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi" talaba tomonidan tuzildi.

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan invstitsiyalar hajmi 199 trln.so'mga oshganligi ko'rishimiz mumkin va albatta bu judayam yuqori natija.

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilning yanvar-iyun oylarida O'zbekistonda asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 121,8 trln. so'mni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 9,4 % ga oshgan.⁹ Hamda, 2023-yilda 11 mldr dollarlik to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya o'zlashtirilishi prognoz qilinmoqda¹⁰.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali biz iqtisodiyotda tub o'zgarishlarni amalga oshirish imkonini beradi va bu iqtisodiyotda yangi ish o'rinalarini tashkil etish va rivojlanish garovi bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida yurtimizga zamonaviy texnologiyalar olib kelib, sanoat ishlab chiqarishini yangilash va modernizatsiyalash jarayonlarini olib borishni investitsiya faoliyatiziz tasavvur etib bo'lmaydi. Investitsiya loyihalarini jalb qilish nafaqat davlat iqtisodiyotini yuksaltiradi, balki aholi turmish darajasini yaxshilashda ham katta samara beradi. Davlatning kelajakdagi iqtisodiy yuksalish darajasini bugungi jalb qilingan investitsiya loyihalari va investitsion jarayonlar belgilab beradi. Mamlakatizmizda amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining hozirgi bosqichida investitsiya siyosati iqtisodiyotdag'i barqarorlik, tarkibiy va sifat o'zgarishlarini belgilovchi muhim omil bo'lmoqda. Doimiy olib borilayotgan investitsiya siyosati yurtimizda xorijiy va mahalliy investorlar uchun har tomonlama qulay investitsiya muhitini yaratish imkonini yaratmoqda. Davlatning kelajakdagi iqtisodiy yuksalish darajasini bugungi jalb qilingan investitsiya loyihalari va investitsion jarayonlar belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining, 25.12.2019 yildagi O'RQ-598-son qonuni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 09.12.2019 yildagi PQ-4546-sonli qarori Byurokratik to'siqlarni yanada qisqartirish hamda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga zamonaviy boshqaruv tamoyillarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida
3. "Hudud iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati" Boboyev A,Yodgorova Z, 2023-yil monografiya
4. "Investitsiya loyihalari ekspertizasi" Zoyirov L.S., Raimjanova M.A., Saidov R.B., Shoislomova N.Q, 2020-yil darslik kitobi
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Byurokratik>
6. <https://lex.uz/docs/-4664142>
7. <https://xs.uz/uz/post>

⁹ <https://asr.gov.uz/news/3536>

¹⁰ <https://uzreport.news/economy>

-
- 8. <https://avtovsamare.ru/uz>
 - 9. <https://stat.uz>
 - 10. <https://asr.gov.uz/news/3536>
 - 11. <https://uzreport.news/economy>

